Suv omborlari loyqalanishi oqibatida, ularning sug'orish zonasida reja asosida suv ta'minoti buzilishi, suv manbaalari suv yig'ish zonalardan yig'ib kelingan tabiiy minerallarga boy cho'kindilarning suv omborlari

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС



yuqori byeflarda qolib ketishi, o'zanli suv omborlarda suv toshqinlari va sel oqimlarini transformatsiya qilish-dagi qiyinchiliklar, gidrotexnik inshootlarni loyqa bosish xavfi yuzaga kelishi va hakozo salbiy holatlar kuzatilm-oqda. Yuqorida qayd qilinganlardan kelib chiqqan holda, mahalliy-tabiyi sharoitlarni va ekspluatatsion omillarni inobatga olib, suv omborlari yuqori byeflari loyqalanishini boshqarish va yuzaga kelgan loyqa cho'kindilarni tozalashning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish bugungi kundagi o'ta dolzarb ekologik muammolarni yuzaga kelishina olib keladi.

Dunyoning barcha davlatlarida bugungi qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlar kunda eng muhim milliy boylik sifatida e'zozlanib kelinmoqda. Ayniqa, rivojlangan davatlarda sug'oriladigan yerlardan samarali foydalananishga, uning qishloq xo'jaligi muomalasidan chiqib ketishining oldini olishga davlat siyosati darajasida katta e'tibor berilmoqda. Shu nuqtayi nazardan xorijiy tajribalarning ahamiyatli jihatlarini ayrim davlatlar misolida ko'rib chiqishimiz lozim.

Yer shari aholisi soni o'sib borishiga muvofiq ravishda oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoj ortishi va bu ehtiyojni sug'oriladigan yerlar texnologiyasi asosida qondirishga bo'lgan intilishning kuchayishi ko'plab daryolardan suv olish global o'zgarish jarayonlarining asosiy sababidir. Buning natijasida tabiiy ekotizimlar buzilmoqda va ular texnik tizimlar bilan almashtirilmoqda. Zamonaviy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari tomonidan suv obyektlarining ifloslantirilishi bu jarayonlarga "munosib hissa"sini qo'shmoqda. Suv ekotizimlarining intensiv degradatsiyalashuvi sodir bo'immoqda. Hozirgi paytda dunyoda suv-botqoqlik ekinlarining qariyb yarmi, xususan, 10 mingga yaqin turlaridan 20 % yo'q. Dunyoning ko'plab mintaqalarida suv resurslari tabiiy fluktuatsiya chegaralarida oldingidek miqdor va sifatda qaytadan yangilanmayapti, ya'ni amalda yangilanmaydigan resurslarga aylanib qolmoqda.

Insoniyat tomonidan iste'mol qilinadigan suv hajmining juda kattaligi va bu hajm tezlik bilan o'sib borayotganligi (faqat XX asrning o'zida suv iste'moli 6,0 martaga o'sgan va uning o'sish sur'atlari aholining o'sish sur'atlaridan 2,0 barobardan ko'proq martaga ortiq bo'lgan) xuddi shunday tarzda suvni ehtiyoj qilish (asrash), suvdan foydalanishni oqilonalashtirish va suvni asrovchi texnologiyalar rivojlanish sur'atlariga erishilishiga olib kelmadni. Qishloq xo'jaligida iste'mol qilinadigan jami suv massasining 60 % nomahsulli bug'lanishga ketmoqda va ifloslangan suv ko'rinishida daryolar va yer osti suvlariga qaytmoqda. Shahar va sanoatda suvning iste'moli ham nihoyatda samarasiz. Rivojlanayotgan mamlakatlarda suv ta'minoti tizimidagi oqib ketishlar, bu tizimlarga noqonuniy ularish va ulardan samarasiz foydalanish evaziga suv manbalaridan olingen suvlarning 50 %ga qadar bo'lgan qismi yo'qolmoqda. Bu ko'rsatkich darajasi taraqqiy etgan mamlakatlarning ko'pchiligidagi ham yuqoridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Dunyodagi eng yirik 227 ta daryoning deyarli 60 foizi to'g'onlar, kanallar va suv olish inshootlari yordamida qismlarga bo'lib tashlandi. XX asr davomida va asosan, uning so'nggi 50 yilda insonning planeta suv sikliga ta'siri faqat gidrotexnik qurilish hisobidan global ko'lamga yetdi. 1950-yilga qadar balandligi 15 metrdan yuqori bo'lgan 5 mingta to'g'on qurilgan bo'lsa, hozirgi paytda ularning soni 45 mingdan oshib ketdi. So'nggi yarim asrda dunyoda o'rtacha har kuni 2 ta to'g'on yaratildi.

Bugungi kunda jahonda suv taqchilligi muammosi tobora keskinlashib bormoqda. Dunyo aholisi sonining ortib borishi, hayot farovonligi darajasini yaxshilashga intilish eng avvalo iste'mol qilinayotgan suv hajmlarining ekstensiv o'sishiga olib kelmoqda. Jahonda 1980-yildan boshlab suvdan foydalanish darajasi yiliga o'rtacha 1% ga o'sib bu tendensiya 2050-yilgacha ham o'rtacha o'sish suratini saqlab qolishi kutilmoqda, bu esa mavjud holatga nisbatan 20-30 % ko'p demakdir. ^[1]

AQShning sanoat sektorida o'rtacha har bir kubometr suvdan 20 martadan ko'proq qayta foydalanilmoqda. Rossiya sanoat sektoridagi suv ta'minoti tizimining deyarli yarmi suv ta'minotining qayta va aylanma asosiga asoslanib qurilgan. Umuman olganda, dunyoda har yili tabiiy manbalaridan olinadigan suv massasining 10 %ga qadar qismi resikllashtirilmoqda. ^[2]

Suv resurslari bilan ta'minlanganlikning xalqaro tasnifiga muvofiq, suv resurslari yiliga odam boshiga 500 m³ dan kam bo'lgan hududlar haddan tashqari suv resurslari tanqis bo'lgan, 500 m³ dan 1 000 m³ atrofida bo'lgan hududlar suv resurslari tanqis bo'lgan, 1 000 m³ dan 1 700 m³ gacha bo'lgan hududlar past darajada suv bilan ta'minlangan va 1 700 m³ dan yuqori bo'lganlar hududlar suv bilan ta'minlangan hudud toifasiga kiritiladi. ^[3]

Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish borasida Turkiya tajribasi alohida ahamiyatga molikdir. Xususan, Turkiya aholisi 65 milliondan ortiq (qishloq aholisi 25 milliondan ziyod) bo'lgan davlatlar qatoriga kirib, umumiy qishloq xo'jaligiga yaroqli haydaladigan yerlari 19 million gektarni tashkil yetadi va shundan 22,6 % sug'oriladigan yerlar. Turkiya iqlimi qishloq xo'jaligi uchun juda ko'p qulayliklar yaratadi (chegaralarining 60 foizi muzlamaydigan Qora, Marmara, Yegey, O'rta yer dengizlari bilan o'ralgan) va bu barcha turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish imkonini beradi. Ammo qishloq xo'jaligi tarmog'i yaxshi rivojlanmagan, masalan,



katta imkoniyatlar mavjud bo'lgan sharoitda asosiy qishloq ho'jaligi yekini bo'lgan g'allaning o'ttacha hosildorligi 21 sentnerni tashkil qiladi va aholi jon boshiga yetishtiriladigan go'sht miqdori o'ttacha 18 kg tashkil qiladi.

Turkiyada qishloq xo'jaligi yekinlarini sug'orish maqsadlarida ishlataladigan suvga to'lovlar bo'yicha mahalliy sharoit hisobga olingan mexanizm ishlab chiqilgan. Sug'oriladigan yerlarning 55,8 foizi yeski sug'oriladigan va 44,2 foizi yangidan o'zlashtirilgan yerlar bo'lib, yeskidan sug'oriladigan yerni sug'orish uchun ishlataladigan suvga xaq olinmaydi. Bunda yekin maydonlarini sug'orish va suvni taqsimlash, suvdan foydalanish inshootlari qadimdan mavjud bo'lganligi e'tiborga olingan.

Dunyo miqyosida suv resusrlarining ko'pligiga hamda bu resursning asosan qayta tiklanadigan xususiyatiga qaramasdan, dunyo aholisining beshdan bir qismi suv tanqisligi sharoitida yashaydi. Bu, birinchi navbatda, chuchuk suvning makon va vaqt bo'yicha noteks taqsimlanishi natijasidir, bu iqtisodiy nomutanosiblik, tartibsizliklari va muvaffaqiyatsizliklarning asosiy harakatga keltiruvchi omil hisoblanadi. Shunga ko'ra, suv resusrlaridan samarali foydalanish va ularni hisobini yuritishda ko'plab yondashuvlar shakllangan.^[4]

Yangidan o'zlashtirilgan yerlarda foydalaniladigan suv resurslari uchun alohida to'lov mexanizmlari joriy yetilgan va bu mexanizmda ikki turdag'i xarajatlarni qoplash mezon sifatida qabul qilingan: suv inshootlidan foydalanish xarajatlarini o'z ichiga olgan- yekspluatatsiya solig'i sug'oriladigan yekin maydonlari hisobiga to'lanadi; suv xo'jaligi gidromeliorativ inshootlari qurilishi uchun saf qilingan kapital mablag'larining bir qismini qoplash maqsadida joriy yetilgan soliqni joriy yetish orqali. Mazkur soliq miqdori ham sug'oriladigan yekin maydonlarini hisobga olgan holda belgilanadi.

Hozirgi kunda Turkiyada 152 ta suv ombori ishlab turibdi, yana yangidan 50 dan ziyod suv omborlari qurilmoqda. Ahamiyatlari jihat shundaki, davlat tomonidan suv xo'jaligi tizimi faoliyati uchun sarflanayotgan umumiyyat mablag'larning 40 foizidan ortig'i gidroenergetika resurslarini sotish hisobidan qoplanadi. Mamlakatda sug'oriladigan yerlaning ahamiyatlari jihatlari juda katta bo'lib, bunday yerlarni aholiga uy-joy qurish yoki boshqa maqsadlar uchun taqsimlashtirish ishlari qattiq nazoratga olingan.

Xitoy davlati aholisi salkam 1,3 mlrd. nafarni tashkil qilib, umumiy foydalaniladigan yer maydonlari 138 mln. hektarga teng va aholi jon boshiga 0,11 hektardan yer to'g'ri keladi. Haydaladigan yer maydoni 100 mln. hektar bo'lib, shundan 50 mln. hektari sug'oriladigan yerlar hisoblanadi. Yillik yog'ingarchilik miqdori o'ttacha 1200 mm ni tashkil qiladi yoki har hektar yerga 12 ming kubometr suv zahirasi to'g'ri keladi. Bu yerda sug'orish ishlari uchun bir yilda o'ttacha 400 mlrd. kubometr suv ishlatilib, o'ttacha bir hektar maydonga 7,1 ming kubometr suv zaxirasi to'g'ri keladi.

Xalqaro amaliyotda suv resusrlarini samarali boshqarish bo'yicha asosiy yondashuvlar Suv resusrlarini kompleks boshqarish (Integrated water resources management- IWRM) konsepsiysi asosida amalga oshiriladi.^[5] Mazkur konsepsiya suv aylanishini barcha tabiiy jihatlari bilan, shuningdek, jamiyatning (yoki butun mintaqaning) turli tarmoqlaridagi suvdan foydalanuvchilarning manfaatlarini tan oladi; shuning uchun u suvning ham tabiiy, ham insoniy o'chamlariga murojaat qiladi. Suv mavjudligining geografik o'zgarishi va yuqori hamda quiy oqimdag'i mumkin bo'lgan o'zaro ta'sirlar nuqtayi nazaridan davriy o'chovlarni, shuningdek, suv mavjudligining tabiiy mavsumiy, yillik va uzoq muddatli tebranishlari kabi vaqt shkalalarini hisobga olishga alohida o'chov vositalarini taqdim etadi.^[6, 7, 8]

Zhaoyang Yang va boshqalarning tadqiqotlarida esa, suv resusrlarining o'tkazish qobiliyati (water resources carrying capacity-WRCC) konsepsiysi bo'yicha jiddiy tadqiqotlar olib borildi. Ushbu tadqiqotda analitik ierarxiya jarayoni (analytic hierarchy process-AHP) va tizim dinamikasi (SD) modellari asosida suv resusrlarining o'tkazish qobiliyatining sumulatsiya modeli yaratilgan. Mazkur simulatsiya modeli asosida suv resusrlarini mamlakat hududlari bo'yicha samarali taqsimlash bo'yicha 5 ta ssenariydagi variantlar taklif etiladi.^[9]

Ciriacy-Wantrup S.V. va boshqalar tadqiqotlarida suv resusrlaridan foydalanishni baholashda ikkita yondashuv taklif etiladi. Birinchidan, ruv resusrlaridan foydalanish orqali ko'rildigan foyda-xarajat tahlilining turli xil hisoblash texnikasi orqali. Ikkinci yondashuv suv resusrlarini belgilangan me'yorlarini o'rnatish va ularga nisbatan farq va chetlanishlarni aniqlash asosida.^[10]

Xitoydagi yirik suv xo'jaligi tizimlaridan biri Xuanxe daryosi asosida faoliyat yurituvchi majmuadir. Majmuuning uzunligi 252 kilometr bo'lib, u 460 ta suv inshootlari, 13 ta dyukerni o'z ichiga oladi. Bu yerda suv daryodan 40 metr balandlikka ko'tarib beriladi. Bugungi kunda Xitoy suv xo'jaligi vazirligi suvdan foydalanish borasida katta huquqlarga yega bo'lib, mamlakatda suv xo'jaligi bo'yicha alohida militsiya tizimi ham tashkil qilingan va bu suvdan foydalanish jarayonini nazorat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada suv resusrlaridan samarali foydalanishning qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrslash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Suv xo'jaligi tizimini ushlab turish uchun davlat tomonidan qurilgan suv omborlari va 5 mingdan ortiq suv inshootlari xizmat qiladi. Xitoya 1980 yillarda boshlangan iqtisodiy islohotlar tufayli qishloq xo'jaligida keng ko'lamma olib boriladigan ishlar jarayonida suv resurslaridan samarali foydalanishga ham katta e'tibor beriladi. Qishloq xo'jaligida sarflanadigan suv uchun xaq to'lash hududlarga va ulardagi suv resurslari miqdoriga qarab belgilanadi. Xitoya davlat tomonidan 50 million hektar sug'oriladigan yer maydonida sug'orish ishlarini olib borish uchun yiliغا 50 milliard yuan mablag' sarflanadi, yoki bu har bir hektar maydon hisobiga 200 AQSh dollariga to'g'ri keladi. Ushbu mablag'arning davlat budjeti hisobiga – 75 foizi va suvdan foydalanuvchilar hisobiga yesa 25 foizi qoplanadi (1-jadval).

1-jadval: Xorijiy mamlakatlarda 1 ga sug'oriladigan yer uchun davlat tomonidan sarf-xarajatlar ko'rsatkichlari

| Mamlakatlar nomi | Xarajat (AQSh dollarri) |
|--------------------|-------------------------|
| Isroil | 300-1000 |
| AQSh | 200-700 |
| Fransiya | 200-500 |
| Xitoy | 100-250 |
| Saudiya Arabistoni | 1000-2500 |
| O'zbekiston | 36,5- 62,0 |

Isroil davlatining aholisi – 5,0 million nafardan ortiq va yekin maydoni – 435 ming hektarni tashkil yetadi, shundan sug'oriladigan yekin maydoni – 220 ming hektar, kishi boshiga to'g'ri keladigan yer maydoni – 0,09 hektarni tashkil qiladi. Mamlakat qishloq xo'jaligi tarmog'ida yer va suv yetishmasligidan tashqari ishchi kuchi ham yetishmaydi. Bunday ijtimoiy-iqtisodiy va iqlim bilan bog'liq muammolarni mexanizatsiya darajasini oshirish yordamida yechishga harakat qilinadi. Tuproqdag'i mavjud namlikdan maksimal foydalanish uchun yerga chuqur ishlov berilib, suv tuproqda ushlab qolinadi. Shunday usullar qo'llanilgan maydonlarning gektaridan 500 kilogrammdan qo'shimcha bug'doy hosili olishga yerishiladi. Isroil hozirgi kunda 100 dan ortiq mamlakatga 60 million dollardan ziyod qishloq xo'jaligi mashinalari yeksport qilmoqda. [11]

Suv mayjudligining eng muhim mezonlaridan biri suvning qayta tiklanadigan manbalardagi ulushi sifatida belgilangan suv stressi indeksidir. Ushbu ko'rsatkichning qiymatiga asoslanib, Jahon Resurs instituti quyidagi shartlar asosida suv ta'sirini tasniflaydi: <10% – past stress darajasi; 10-20% – past va o'rta stress; 20-40% – o'rta va yuqori stress; 40-80% – og'ir stress; >80% – juda yuqori stress. [12]

Isroil davlatida yillik yog'ingarchilik miqdori o'rtacha 1000 mm va undan ziyodni, mamlakatning sahro qis-mida 300-500 mmni tashkil qiladi. Isroil hududidagi barcha suv resurslari (oqova, yer osti va yer ustı suvlari) ga oid masalalar bilan mamlakat miqyosida Davlat Suv Kengashining doimiy nazoratida bo'lgan Suv qo'mitasi shug'ullanib, qo'mita o'z faoliyatida, barcha tashkilot va korxonalar bilan belgilangan va cheklangan suv resurslarining ishlatalishi, ulardan samarali foydalanish bo'yicha kelishuv assosida ish yuritadi. Bu mamlakatda suv sarfi nazorati juda qattiq o'rnatilgan bo'lib, agarda iste'molchilar suvni limitda ko'rsatilganidan ortiq ishlatalishsa, ulardan ortiqcha ishlataligan har kubometr uchun suvning tannarxiga nisbatan 10 barobar ko'p haq olinadi.

Suv resurslarini qayta ishlatalish bilan bog'liq tadbirlar mamlakatda yekin maydonlari, suv omborlari, yer osti qatlamlarida tuzlar konsentratsiyasi ko'payishiga, sho'rlangan yerlar salmog'i ortishiga olib kelmoqda va bu yesa yana qo'shimcha mablag' va xarajatlarni talab yetadi. Suv tanqisligi tufayli Isroil davlati dunyoda suvni yeng kam sarf qiladigan texnologiyalari bilan mashhur (2-jadval).

2-jadval: Xorijiy davlatlar sug'orma dexqonchiligidagi bir kompleks gektar uchun suv sarfi miqdori

| Nº | Davlatlar nomi | Suv sarfi miqdori, m ³ /ga |
|----|----------------------|---------------------------------------|
| 1 | Isroil | 6000 |
| 2 | Pokiston | 18000 |
| 3 | Rossiya | 20000 |
| 4 | Turkiya | 14000 |
| 5 | Turkmaniston | 15000 |
| 6 | Xitoy | 15000 |
| 7 | O'zbekiston (brutto) | 12000 |
| 8 | O'zbekiston (netto) | 9000 |
| 9 | Qozoqiston | 25000 |
| 10 | Hindiston | 19000 |



Jahondagi ayrim davlatlarda qishloq xo'jaligi yekinlarini sug'orish uchun bir gektar maydonga sarflanayotgan suv miqdori tahlillari ko'rsatishicha, Isroiuning uslubi ustunligi yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, AQSh ning Kaliforniya shtatida 12-14 ming m³; Hindistonda 19-22 ming m³; Pokistonda 18-20 ming m³, Turkiyada 14-20 ming m³, Xitoyda 15-17 ming m³, Turkmanistonda 15-19 ming m³, Qozog'istonda 25-35 ming m³, Rossiyaning sug'oriladigan Krasnodar o'lkasida 20-25 ming m³, Isroilda (tomchilatib sug'orish bilan) 6 ming m³ atrofida, O'zbekistonda yesa 11-12 ming m³ ni (brutto) tashkil qiladi, netto suv sarfi yesa ancha kam.

Suv resurslarini samarali boshqarish, ularning hisobi va hiso-botini to'laqonli yuritish, suv iste'molchilarini orasidagi munosabatlarni takomillashtirish hamda ushbu jarayonlarga xususiy sektorni keng jalb qilish maqsadida tashkil etilgan suv xo'jaligi maxsus xizmatlari faoliyatini takomillashtirish talab etiladi. [13]

Yaponiya, Turkiya, Xitoy, Isroiidan boshqa yana bir qator davlatlar, jumladan: Fransiya, Gollandiya, Suriya, Hindiston, Pokiston, Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Italiya, Indoneziya, Ispaniya, Marokash, Misr, Nigeriya kabi mamlakatlarda ham suv xo'jaligi islohoti natijasida suvdan tejab-tergab foydalanish va suv uchun to'lovlar mexanizmi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu davlatlarning aksariyatida suv resurslaridan foydalanish xaratjatlari ma'lum darajada davlat tomonidan o'zlariga xos shakllarda boshqariladi, ayrimlarida davlat subsidiyalari orqali, ba'zilarida ma'muriy-boshqaruv asosida amalga oshirilmoqda.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlardan biri bo'lgan Fransiyada yesa keyingi yillarda mamlakat hududidan oqib o'tadigan ko'pgina daryolarning suv resurslarini nazorat qiluvchi politsiya tashkil yetilgan.

Ta'kidlash lozimki, barcha davlatlar hududida suv xo'jaligini rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, yangi suv inshootlarini qurish, asosiy vositalarni ko'paytirish va yangiliklarni yaratish ishlari to'liq davlat tomonidan amalga oshirilmoqda. Masalan, Arab davlatlarida suv va suvgaga bog'liq barcha sarf-xarajatlar markazlashgan holda davlat tomonidan qoplanadi.

XULOSA

Jahondagi ayrim davlatlarda yesa ushbu maqsadlar uchun davlat tomonidan 30-50 yil va undan ortiq muddatga mo'lallangan imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Bunday kreditlar ko'pgina davlatlarda to'liq o'z mablag'lari zaxirasi hisobidan, ayrim hollarda, ularning bir qismi dunyodagi turli moliyaviy fondlar va tashkilotlar yordamida amalga oshiriladi. Lekin biron-bir davlat hududida suv resurslariga qo'yilgan talab va ishlab chiqilgan qonunlar suvdan foydalanish tijorat maqsadlariga qaratilmagan bo'lib, balki, avvalo, insonlar manfaati uchun suvgaga bo'lgan munosabatni zamon talabiga moslash, suvni asrab va tejamkorlik bilan foydalanish tamoyillari asosida qurilgan. Bu iqtisodiyot tarmoqlarining suv resurslariga bo'lgan yehtiyoji bilan sarflanayotgan suv miqdorlari o'rtaisdagi tafovutni kamaytirish, ularni to'g'ri yo'naltirish masalalari yechimini hal yetish, kelajak avlod uchun suv resurslari to'g'risida qayg'urishdir.

XXI asr boshidan boshlab insoniyat uchun global muammoga aylanib borayotgan suv resurslari taqchiligi masalasini hal qilishga, ulardan oqilona foydalanishga e'tibor berib, o'z iqtisodiy ko'rsatkichlari, ichki va tashqi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda dasturlar tayyorlamoqdalar va dasturlarni ma'lum darajada amalga oshirmoqdalar.

Suvdan foydalanish jarayoni tahlil qilinganda yana bir masalaga e'tibor qaratish lozim, ya'ni dunyodagi davlatlardan birortasining qishloq xo'jaligida O'zbekiston kabi deyarli 100 foiz sug'oriladigan yer maydonlaridan foydalanilmaydi.

Markaziy Osiyo hududida, xususan, O'zbekiston hududida yozda o'simliklarning vegetatsiya davrida yog'ingarchilik umuman kuzatilmasligi tufayli tuproq namini ushlab turish faqatgina sug'orish tadbirlari orqali amalga oshiriladi. Bu holat nafaqat mas'uliyatni, shuningdek katta mablag'ni sarflab turishni taqozo yetadi.

O'zbekiston sug'oriladigan yer maydonlari, bu maydonlarga ishlov berish va yuqori hosil yetishtirish jarayonlarida suv xo'jaligi tizimining ahamiyati kattaligi bo'yicha ham, bu sohaga davlat tomonidan ajaratilayotgan mablag' miqdoriga ko'ra ham boshqa davlatlardan keskin farq qiladi.

Rivojlangan davlatlarda sug'orish texnologiyasini takomillashtirishga katta ahamiyat beriladi. Sug'orish texnologiyasining progressiv usullari dastlabki kapital quylmalarni ko'proq talab qilsa ham, suv sarfini va mehnat sarfini tejash imkoniyatini beradi. Bu, ayniqsa, ish kuchi qimmat bo'lgan davlatlarda juda muhim ahamiyat kasb yetadi.

Dunyo tajribasida innovatsion faoliyat darajasini belgilashning asosiy mezonlaridan biri bu qilingan ixtiro va kashfiyotlar uchun olingan patentlar soni va ularning yillar hamda iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha o'sishihi hisoblanadi. Bu boradagi ma'lumotlar tahlillari ko'rsatishicha, 2008-yilda Xitoyda 203481 ta patentlar olingan bo'lsa, bu ko'rsatkich AQShda 400769 ta, Yaponiyada 391002 tani tashkil yetgan. 2017-yilga kelib yetakchilik Xitoya o'tib 526412 tani, AQShda 503582 tani, Yaponiyada yesa 342610 tani tashkil yetgan. Patentlar soni bo'yicha yaqqol ustunlik 2017-yildan boshlab Xitoy, AQSh va Yaponiya davlatlariga tegishli bo'lgan.

Shuningdek, Janubiy Koreya, Germaniya, Hindiston va Rossiya kabi davlatlarda ham ixtiro va kashfiyotlar uchun olingan patentlar sonining barqaror darajada o'sish ko'rsatkichlariga yega bo'lganligi kuzatiladi. Bu o'z



navbatida yuqorida nomlari qayd yetilgan davlatlarda ilmiy-texnik va innovations rivojlanish yuqori darajada yekanligidan dalolat beradi. Bu sohada mamlakatimizda ham ixtiro va kashfiyotlar uchun olingan patentlar soni o'sib bormoqda.

Bundan tashqari ilmiy muassasalarning ilmiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatini belgilovchi muhim ko'rsat-kichlardan biri bu ilm-fan sohasining moddiy-texnik jihatdan ta'minlanganligi va qurollanganligi darajasi hisoblanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Burek P., Satoh Y., Fischer G., Kahil Mt., Scherzer A., Tramberend S., Nava L.F., Wada Y., Et all. 2016. Water Futures and Solution – Fast Track Initiative (Final Report). IIASA Working Paper. Laxenburg: WP-16-006. P.88.
2. Данилов-Данильян В.И., Лосев К.С. Потребление воды: эколо-гический, экономический, социальный и политический аспекты. – М.: Наука, 2006. – 221 с.
3. Falkenmark M., Widsrand C. Population and water resources: A delicate balance. Population Bulletin. 1992. 47(3). November. P. 36
4. Hering J. G., Ingold K. M. Water resources management: what should be integrated? //Science. – 2012. – Т. 336. – №. 6086. – С. 1234-1235.
5. Agarwal A. et al. Integrated water resources management. – Stockholm: Global water partnership, 2000. – С. 1-67.
6. Savenije H. H. G., Van der Zaag P. Integrated water resources management: Concepts and issues //Physics and Chemistry of the Earth, Parts A/B/C. – 2008. – Т. 33. – №. 5. – С. 290-297.
7. Rahaman M. M., Varis O. Integrated water resources management: evolution, prospects and future challenges //Sustainability: science, practice and policy. – 2005. – Т. 1. – №. 1. – С. 15-21.
8. Biswas A. K. Integrated water resources management: a reassessment: a water forum contribution //Water international. – 2004. – Т. 29. – №. 2. – С. 248-256.
9. Yang Z. et al. Comprehensive evaluation and scenario simulation for the water resources carrying capacity in Xi'an city, China //Journal of environmental management. – 2019. – Т. 230. – С. 221-233.
10. Ciriacy-Wanrup S. V., Bishop R. C., Andersen S. O. Water policy and economic optimizing: Some conceptual problems in water research //Natural Resource Economics. – Routledge, 2019. – С. 67-76.
11. Собиров А. Хорижий давлатларда сувдан фойдаланиш. <http://ft.uz/cgi-bin/main.cgi?lan=u&raz=17&id=495>.
12. Ритчие Н., Розер М. Уатер усе анд стресс // Оур Ворлд ин Дата. 2017. УРЛ: <https://ourworldindata.org/water-use-stress> (дата обращения: 10.01.2023).
13. Axmedov S. N. Suv resurslaridan foydalilanish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari // "yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot. 2023-yil, avgust. № 8-son.

Yashi

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

